

OILAVIY MUNOSABATLARNI INSONPARVARLASHTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Karimov Umidjon Kamilovich

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari, ijtimoiy-psixologik qarashlari, oila mustahkamligini ta'minlashda ijtimoiy psixologik sabablar, oilada barkamol yoshlarni tarbiyalashda ijtimoiy-madaniy va milliy-psixologik omillarning tarbiyaviy ta'siri haqida fikr bildirilgan.*

Tayanch so'zlar: *oilaviy munosabatlar, ibrat, pand nasihat, oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, uyatli, andishali, pokiza, bola tarbiyasi, psixika, aqliy taraqqiyot, o'z-o'zini anglash, turmush tarzi, salbiy o'zgarishlar, etnopsixologiya.*

KIRISH

Hozirgi kunda oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirishning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 2025 yilning yanvaridan noyabrigacha ayollarga nisbatan 36 mingga yaqin zo'ravonlik, jumladan 12 mingdan ortiq jismoniy zo'ravonlik holatlari qayd etilgan. Oila a'zolarinig bir-biriga nisbatan no'to'g'ri munosabatlar, zo'ravonlik ba'zida fojiali holatlarga ham sabab bo'lmoqda.

Yaqin yillargacha jahon psixologiya fanida yagona insonparvarlik an'anasi rivojlanishining ikki yo'nalishi: dialektik materializm falsafasiga asoslangan psixologiya va insonparvar (gumanitar)lik psixologiyasi o'zaro farqlanar edi. Biroq, ular o'rtasida azaldan printsiplial farq mavjud bo'lib, uni anglab yetish va bartaraf qilish uchun faqat keyingi davrdagina qulay mafkuraviy va ilmiy shart-sharoitlar yaratila boshlandi.

Birinchi yo'nalishga asoslangan psixologiyada har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs ideali har doim pirovard maqsad, ideal chegara yoki shaxsning kamol topishi jarayoni samarasi va o'ziga xos andozasi (etalon) sifatida qarab kelindi. Mazkur jarayon shu andozaga muvofiq yo'lga qo'yilishi va uning barcha oraliq natijalari ham shunga binoan baxolanishi lozim edi. Boshqacha aytganda, aynan ilmiy-nazariy fikr-mulohazalarda ham, amaliy psixologik-pedagogik o'quv-tarbiya faoliyatida ham «idealdan-hayotga» deb atash mumkin bo'lgan strategiya amalga oshirilib kelindi. Bunda idealning o'zi haddan tashqari mavhum va jo'n bo'lib, shaxs rivojlanishining hozirgi hayot «ufqidan narida» turgan qandaydir eng yuksak mezon tarzida tushunildi. Idealning real hayotdan haddan tashqari ajralib ketishi uning hayot bilan asta-sekin aloqasi yo'qolishiga olib keldi. Ideal o'z realligini, muayyanligini va binobarin, shaxs rivojlanishining real jarayonlariga nisbatan yo'nalganlik va tashkiliy vazifalarini yo'qota bordi. Oqibat natijada, bu strategiya, bir tomondan psixologiya va pedagogika sohasida o'ta soxta nazariy fikr-mulohazalarni, ikkinchi tomondan esa psixologik-pedagogik amaliyotning turli tavsiyalari (ta'sir ko'rsatish va baholash tartiblari)ni haddan ziyod dogmatikligi va befoyda keltirib chiqaradi.

Insonparvarlik psixologiyasi inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlariga ayniqsa, kishilarning nikoh va oiladagi o'zaro munosabatlari kontekstiga ham ko'p e'tibor beradi. Unga ko'ra nikohga kiruvchilar dastlab jamiyatda yashashni, turli ijtimoiy guruhlar doirasida, shaxslararo muloqotning har xil zaruriy shakllari va usullarini o'rganish lozim.

Nikoh - er bilan xotin hayotidagi bir davrdir, chunki aslini olganda, ularga alohida holda nikoh kerak emas. Nikoh oilani tashkil etib, uning muhim vazifasi farzandlar ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar davomiyligi bilan yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlash, muqaddas urf-odatlarini saqlash va uni avlodlardan avlodga o'tkazishdek vazifalarni amalga oshiradi.

Bizningcha, oila ana shunday vazifalarni amalga oshirish uchun insonparvarlik psixologiyaning asosiy printsiplarini quyidagicha ifodalasa bo'ladi. Farovon turmush va oilaviy baxt-saodatga erishish uchun oilaning asosini tashkil etuvchi er-xotin zarur insoniy sifat va fazilatlarini egallagan, har tomonlama barkamol, baxtli-saodatli, farovon turmushni ta'minlashga qodir (tayyor) insonlar bo'lishi kerak. Ushbu tamoyil er-xotin va oilaning boshqa a'zolari munosabatlari uchun g'oyat muhimdir.

Real hayotdagi oilaviy munosabatlar va ularning barqarorligi qanday? Barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar mavjudmi? Barqarorlikni ta'minlashning zarur shart-sharoitlari nimalar? . . . degan qator savollar yuzaga keladi.

Asosiy qism. Biz tadqiqotlarimizda oilaning insonga yo'nalganligi xususiyatidan kelib chiqqan holda, o'zbek milliy-madaniy muhitidagi oilaviy munosabatlarni insonparvarlashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qator izlanishlarni o'tkazdik.

Dastlab, oilaviy o'zaro (er-xotin misolida) munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar o'rganildi.

Ilmiy manbalarni o'rganish va olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, oilaviy shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirish imkoniyatlari qator iqtisodiy, ijtimoiy, milliy-madaniy, shaxsiy-psixologik omillarga bevosita bog'liqligi aniqlandi.

1-jadval

Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar va ularning baholanishi (n=300)

Omilar	Rang 1,2,3,4,5 o'rni	F oiz
Oilaning moddiy ta'minlanganligi	1,40	9 2%
O'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi	1,20	9 6%
Oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari	1,25	9 5%
Mustaqil oila sifatida hayot kechirish	3,55	4 9%
Uy-joy bilan ta'minlanganlik	2,40	7 2%

.	Farzandlar	1,25	9 5%
.	Oila a'zolarining onglilik va ma'naviy axloqiy mavqei	1,40	9 2%
.	Muomala odobi mehnat taqsimoti	1,35	9 3%
.	Oilada mehnat taqsimoti	2,00	8 0%
0.	Jinsiy moslik (jinsiy qoniqish)	2,30	7 4%
1.	Qaynona va qaynotaning oilani bojshqarishga aralashuvi	3,05	5 9%
2.	Qayn-aka, qayn-uka va qayn-singillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroki	3,95	4 1%

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, er-xotinlar oilaviy shaxslararo munosabatlarining barqarorligini ta'minlashda «o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi» ni eng ta'sirchan (muhim) omil deb hisoblaydilar (o'rinlar yig'indisi 1,20; 96%). Darhaqiqat, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat-ehtirom, mehr-muhabbat, ishonch va sadoqat, izzat-ikrom, hamfikrlilik va munosabatlarning samimiyligi oila mustahkamligini ta'minlashning eng muhim asoslari bo'lib xizmat qiladi. Har bir millatning tarixan shakllangan o'zining oilaviy hayoti, turmush tarzi bor. Oilaviy turmushda er bilan xotinning vazifasi va burchlariga oid qadriyatlar mavjud. Er yoki xotinning mazkur qadriyatlarni yetarli darajada o'zlashtirmaganligi yoki ado eta olmasligi ular orasidagi o'zaro hurmat, sadoqat va ishonchning asta-sekin so'nishiga va oilaviy turmush aksil holatlarning shakllanishiga sharoit yuzaga keltiradi. Er-xotinlar o'rtasida «o'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi» ga alohida e'tibor bilan qaraganlik ijobiy natijalarga olib keladi.

Shuningdek, «Oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari» ham (o'rinlar yig'indisi 1,25; 95 %) o'zbek oilalari uchun eng muhim qadriyat sifatida tan olindi. Shaxs psixologiyasining tahlillari va xulosalariga ko'ra, shaxslilik sifat-fazilatlar yuksak darajada shakllangan insonlarga (shu jumladan oila a'zolari ham) bir-birlarini to'g'ri tushuna oladilar, bir-birlariga hamfikir, hamjihat, hamkor, kamchiliklar yoki xatoliklar o'tganda kechirimli, sabr-qanoatli, itoatli, kengashib ish tutadigan, oilaviy muammolar yechimini tez topib, oila totuvligi, farovonligi va ravnaqi yo'lida ishonch bilan qat'iy dadil ish ko'radilar. Ayniqsa, oilaviy turmushda bir-birlarini to'g'ri tushunishga intilish, maslahatlashib-kengashib ish tutish, o'zaro hurmat va mehr-oqibatlik, ezgu istaklar sari faollik o'zbeklarga xosdir.

1-jadvalda shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlovchi yana bir muhim omil «Oilada farzandlarning bo'lishi» (o'rinlar yig'indisi 1,25; 95%) deb tan olindi.

Haqiqatdan ham oilaning asosiy vazifalaridan biri - farzand ko'rib, uni voyaga yetkazish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Oilada farzand tug'ilishi er-xotin, qaynona-kelin, qaynota-kuyov va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi, qon-qarindoshlar orasida mehr-muhabbat hislari yanada mustahkamroq shakllanadi. o'zbek xalqi bolajon xalq bo'lgani uchun oilada

farzand tug'ilishi bilanoq uning tarbiyasi va kamoloti bilan bog'liq ota-onaning orzu-havas va ezgu-niyatlari real namoyon bo'la boshlaydi va ularni amalga oshirish uchun tinmay izlanadilar. Ular oilaviy turmushda uchrab turadigan mayda-chuyda muammolarga e'tibor bermaydilar, hatto er-xotinning qat'iy tus olgan o'zaro munosabatlariga ta'sirini o'tkaza olmaydilar.

Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi omillar orasida «Oilaning moddiy ta'minlanganligi» (o'rinlar yig'indisi 1,40; 92%) ham oldingi o'rinlarda belgilandi. Oilaning moddiy ta'minlanganligi - unda iqtisodiy-moliyaviy xo'jaligi faoliyatini to'g'ri va oqilona yuritish hisoblanadi. Oila a'zolarining uning daromadlarini rejali sarflashi kundalik turmush uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib, to kiyim-kechak, hatto xo'jalik asbob-anjomlarigacha me'yor bilan xarid qilish, tejamkorlik bilan foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik uning ravnaq topishi va gullab yashnashi uchun imkon yaratadi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligida «Oila a'zolarining onglilik va ma'naviy axloqiy mavqei» (o'rinlar yig'indisi 1,40; 92%) ham muhim o'rinda turishi qayd etildi. Albatta, oila a'zolarining onglilik va ma'naviy axloqiy mavqei undagi shaxslararo munosabatlarning barqarorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir ongli inson u yoki bu narsaning mohiyatini, qadr-qimmatini, ahamiyatini to'g'ri anglaydi va uni munosib baholay oladi. Ushbu fazilat o'zaro munosabat me'yorlarini saqlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Aksincha bo'lsa, oila a'zolari orasida kelishmovchiliklar, ishonchsizlik va tushunmaslik holatlari yuz beradi va buning oqibatida ularning o'zaro munosabatlarida ziddiyatlar yuzaga keladi.

Ular ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan bo'lsalar, ularning bir-biriga yoki odamlarga nisbatan munosabatlari, samimiy, odobli, mehr-oqibatli va kechirimliligi tufayli, o'rinli va me'yoriy kiyinishi, yurish-turishdagi namunasi kishilarning havasini keltiradi. Aks holda, er-xotin va boshqa oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibatsizlik, bir-biridan norozilik, notinchlik, jizzakilik, umidsizlik, beparvolik, loqaydlik holatlari yuz beradi. Bular esa oilaning buzilishi uchun zamin hozirlaydi.

Oila a'zolari (ayniqsa, er-xotin) o'rtasida kechadigan muomala odobi (o'rinlar yig'indisi 1,35; 93%) undagi shaxslararo munosabat barqarorligini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Oiladagi kundalik muloqot bu hayotiy ehtiyoj sifatida yuzaga keladi. Er-xotinning oiladagi tashkiliy, moddiy, ma'naviy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan kechadigan muomala munosabatlari sof va samimiy, urning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmati, mehr-muhabbati va iffati asosida qurilsagina unda musaffo ma'naviy muhit yuzaga keladi, shaxslararo munosabatlar barqarorligi yanada mustahkamlanadi. Erning xotining, xotinning erga betakallulfligi, bir-biriga qo'pol muomalasi, oilaviy turmush bilan bog'liq iqtisodiy, tashkiliy, tarbiyaviy va ma'naviy qiyinchiliklarni yengishdagi turli fikrlilik, kelisha olmaslik holatlari asta-sekin undagi shaxslararo munosabatlarning buzilishiga, ya'ni oilaning inqiroziga olib keladi.

Er-xotinning oila boshqaruvidagi ishtiroki unda rollar yoki mehnat taqsimoti (o'rinlar yig'indisi 2,00; 80%) muhim ahamiyat kasb etishi qayd qilindi. Oilaviy munosabatlar madaniyatining takomillashuvi turli ijtimoiy tarixiy davrlarda turlicha xususiyatga ega bo'lgan.

U hududiy, milliy va diniy o'ziga xosliklar ta'sirida shakllangan. Bu ayniqsa, xalqimiz ijtimoiy tarixining turli davrlarida ayolning jamiyatda va oilada tutgan o'rnida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Oilada ayolning o'rne - onaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Uning sadoqati, ozoda-orastaligi, shirin muomalasi, mehr-muhabbati, shirin taomlar tayyorlashi, mehmon kutishi, saranjom-sarishtaligi, kiyinish va muomala madaniyati, ma'naviy-madaniy savodxonligi, farzandlar, ayniqsa qizlar uchun namuna maktabidir.

Erning ishbilarmonligi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi, rejali va uylab ish tutishi, bosiqligi, talabchanligi, ko'p hunarmandligi, halolligi, adolatparvarligi, oila va xotiniga nisbatan sadoqati farzand uchun andoza sifatida ijtimoiy tasavvurlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Inson hayotida moddiy ehtiyojlar va ularni qoniqtirish muhim o'rin tutadi. Jumladan, er-xotinning jinsiy mosligi (jinsiy qoniqishi) (o'rinlar yig'indisi 2,30; 74%) oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qayd etilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha oiladagi ziddiyatlarning shakllanishi-da jinsiy mutanosib (jinsiy qoniqmaslik) ham muhim rol o'ynaydi. Jinsiy nomutanosib - farzandsizlikka olib kelishi yoinki ko'p hollarda er-xotinning turmush tarzini o'zgartirish yoki boshqacha qurishga ham olib kelishi mumkin. Jinsiy moslik esa-jinsiy qoniqish, bir-biriga ishonch, mehr-muhabbatli, sadoqatli, hamdam-hamfikir bo'lishga, oila g'ururi va sha'nini saqlashga chorlaydi, uning mustahkam va barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqotlarimizda yangi oilaning «uy-joy bilan ta'minlanganligi» (o'rinlar yig'indisi 2,40; 72%) ham uning barqarorligini ta'minlovchi muhim tarkib ekanligi tan olinganligi ijtimoiy-psixologik voqelikdir.

O'zbeklarning milliy-madaniy va hududiy xususiyatlariga ko'ra, har bir oila uy-joy bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Shu bois, o'zbek oilasida o'g'il farzand tug'ilsa, ota-ona tezda uy-joy qurish tashvishiga tushadilar, chunki ular ulg'ayib turmush qurganlarida uyli-joyli bo'lishligi oilaning to'la-to'kis faoliyat ko'rsatishiga, uning a'zolari erkin va farovon turmush kechirishiga asosdir. Uy-joy qurish murakkabligi sababli ham xonadonli er-xotinlar ko'p vaqtini imorat qurishga sarflamay, balki oilaning moddiy va ma'naviy ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qiladilar. Xo'jalik o'zini tutib olgandan so'ng, oilada farzandlar o'sib, ulg'aya boshlagach, er-xotin ham ota-bobolarining an'nasini davom ettirib, o'g'illariga uy-joy qura boshlaydilar. Uy-joy bilan bog'liq an'ana ko'pincha shu tartibda davom etaveradi.

Shundan so'ng, o'z ahamiyatiga ko'ra, «qaynota va qaynonaning (kelin yoki xotin uchun) oilani boshqarishga aralashuvi» (o'rinlar yig'indisi 3,05; 59%) ko'rsatildi. Sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqining urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarga binoan yangi oilaga ota-onaning rahnomaligi uni to'la faoliyat ko'rsatishga yaqindan yordam berishi yoki doimiy unga g'amxo'rlik qilishi an'anaga aylangan. o'zbek oilasiga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular uzoq yillar davomida shakllanib, qadriyat darajasiga ko'tarilgan va bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Bu uning ko'p bo'g'inliligidir (bobo, buvi, o'g'il, kelin, nevara, chevaralar birga yashashidir). Bunday oilalarda bolajonlilik, serfarzandlilik, mehnat taqsimotining qat'iyligi, byudjet uning a'zolari bilan bamaslahat ota-ona tomonidan boshqarilishi, kichik a'zolarining kattalarga hurmat-ehtiromi, bo'ysunishi, itoatkorligi, unda erkakning muhim rol o'ynashi, ota-onaga nisbatan munosabatning alohida ahamiyat kasb

etishi, ayollarga nisbatan e'zoz, ularni avaylab-asrash hissining kuchliligi, oila g'ururi va sha'nini himoya qilish a'zolarining burchiga aylanib qolganligi, tug'ilib o'sgan joyiga alohida mehr-muhabbat tuyg'usining mavjudligi xosdir. O'zbeklar milliy-madaniy muhitida ko'proq «mustaqil oila sifatida hayot kechirish» uning ko'p bo'g'iniligi sharoitlari ta'sirida, unda mehnat taqsimotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi va uning muhitidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy tengsizliklar (kelishmovchiliklar, nomutanosibliklar) tufayli sodir bo'ladi va shu orqali oiladagi shaxslararo munosabatlar barqarorligini (ko'p bo'g'inli oila uchun ham, o'zlarining yangi oilasi uchun ham) ta'minlashga intiladilar. Shu bois, bu omil ahamiyatiga ko'ra (o'rinlar yig'indisi 3,55; 49%) o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etadi. Bu holat ko'proq shaharliklarning turmush tarziga xos xususiyat (uy-joylarning chegaralangan bo'lishi) sifatida namoyon bo'ladi.

Shundan so'ng o'z ahamiyatiga ko'ra «qayn aka, qayn uka, qayn opa va qayn singillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroki» (o'rinlar yig'indisi 3,95; 41%) o'rin oldi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek oilalari aksariyat holatlarda ko'p bo'g'inlilik xususiyatini saqlab kelayotganligi uchun qayn aka, qayn uka, qayn opa va qayn singillar oilaviy munosabatlarda bevosita to'la huquqli ishtirokchi sifatida undagi o'z vazifa va burchlari doirasida ishtirok etadilar. Ular oiladagi shaxslararo munosabatning barqarorligini ta'minlashda (muomala odobi, undagi mehnat taqsimoti, vazifa va burchni to'g'ri ado etish, o'zaro hurmat va e'tiborni saqlash, uning iqtisodiy negizini, ma'naviy muhitini saqlash, g'ururi va sha'nini himoya qilish va boshqalarda) u yoki bu darajada mas'uldirlar. Ularning belgilangan me'yorlar darajasida (qoida-tartiblar) funktsiyalarini o'tay olmasliklari oila barqarorligiga zid holatlar yuzaga kelishining sababdir.

O'zbek milliy madaniy muhitida er-xotinlar o'zlarining real turmush tajriba va tasavvurlariga asoslangan holda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarga atroflicha baholash berishlari taklif etildi (2-jadvalga qarang).

2-жадвал

Қуйидаги омилларнинг аҳамиятига кўра оилавий низоларни келтириб чиқарувчи сабаблар сифатида баҳоланиши (n=300)

Омиллар	Rang 1,2,3,4,5 o'rne	F oiz
Fe'l-atvorning mos kelmasligi	1,20	9 6%
Bolalar tarbiyasiga munosabati	2,35	7 3%
Iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar	1,80	8 4%
Oila byudjetini rasional boshqara olmaslik	1,50	9 0%
Uy ishlarining taqsimoti	3,05	5 9%
Ota-onalarning aralashuvi	2,00	8 0%

.	Boshqa birovlarining aralashuvi tufayli	3,10	5 8%
.	Rashk va ishonchsizlik	1,80	8 4%
.	Sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi	1,45	9 1%
0.	Uy ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi	1,70	8 6%
1.	Ota-ona va qarindosh-urug'larga munosabat	2,50	7 0%
2.	Farzandsizlik	1,30	9 4%
3.	Yashash sharoitining noqulayligi	2,55	6 9%
4.	Dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi	2,00	8 0%
5.	Gap olmaslik, kelishmovchilik	2,60	6 8%
6.	Oila manfaatiga mos yumushda ishlamasliklari	3,05	5 9%
7.	Ichish, chekish va boshqa qusurlar	2,80	6 4%
8.	Jinsiy munosabatlarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik	2,00	8 0%
9.	Muvaqqat noxush kayfiyatlar	4,30	3 4%
0.	Boshqa arzimagan sabablar	4,60	2 8%

O'zbeklarda oilaviy nizolarni keltirib chiqaruvchi omillarni ilmiy jihatdan orqali undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tadqiqot ishlari olib borildi. o'tkazilgan anketa so'rov natijalariga (6-jadval) ko'ra, er-xotin fe'l-atvorining mos kelmasligi (o'rinlar yig'indisi 1,20; 96%), oilada farzandsizlik (1,30; 94%), er va xotin o'rtasida sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi (1,45; 91%), oila byudjetini ratsional boshqara olmaslik (1,50; 90%) kabi omillar oilaviy nizolar kelib chiqishining birinchi o'rindagi asosiy sabab ekanligi qayd etildi.

Er-xotinlar o'rtasida oilaviy nizolar kelib chiqishida «uy-ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi» (1,70; 86%), iqtisodiy ta'minotdagi kamchiliklar (1,80; 84%), rashk va ishonchsizlik (1,80; 84%), ota-onalarning kelin-kuyov munosabatlariga aralashuvi (2,00; 80%), dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi (2,00; 80%), jinsiy aloqalarda zarur qoidalarga rioya qilmaslik (2,00; 80%) holatlari muhim o'rin tutishini alohida qayd etadilar.

Er-xotinlarning fikricha, oilada «Bolalar tarbiyasiga - munosabat» (2,35; 73%), ota-ona va qarindosh urug'larga munosabat (2,50; 70%), yashash sharoitining noqulayligi (2,55; 69%), gap olmaslik, o'zaro kelishmovchilik (2,60; 68%), ichish, chekish va boshqa qusurlar sababli (2,80; 64%) ham tez-tez oilaviy nizolar yuzaga kelishi respondentlar tomonidan e'tirof etildi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, oilada er-xotin o'rtasida uy ishlarining taqsimoti sababli (3,05; 59%), oila manfaatiga mos yumushda ishlamasliklari (3,05; 59%), er-xotin munosabatlariga boshqa birovlarining aralashuvi (3,10; 58%), ba'zi hollarda muvaqqat noxush kayfiyatlar (4,30; 34%) yoki boshqa arzimagan vajlar (4,60; 28%) bilan ham u yoki bu darajada nizolar kelib chiqadi, deb baholaydilar.

Xulosa. Albatta oilani insonparvarlashtirish oilaviy nizolarni keltirib sabablarni o'rganishni, oilada barqaror muhitni ta'minlash omillarini o'rganishni taqozo etadi. Oilaviy munosabatlardagi beqarorlik ota-onalik majburiyatlariga yetarlicha tayyor emaslik, e'tiborsizlik, g'amxo'rlik va iliq o'zaro munosabatga, jozibadorlik va zamonaviy tashqi qiyofaning yo'qligi hamda maishiy muammolarni hal etishga imkoni kamligidan dalolat bermoqda.

Mazkur tadqiqot o'zbek oilasidagi shaxslararo munosabatlar mohiyatini o'rganish va oldindan bilish (baholash), insonparvarlashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ushbu yo'nalishda zarur shart-sharoitlarni yaratish istiqbollarini belgilashga yordam beradi.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Т.Н. “Социально-психологические проблемы стабильности и успешности брачно-семейных отношений” / 12.2009-Санкт-Петербург 2. Karimova V.M. Ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida er-xotin o'zaro munosabatlariniig roli. / O'zbek oilasining etnopsixologik muammo-lari. Resp. Ilm. amal. anj. ma'ruz. qisqacha bayoni. - T., 1993. -44-45 b.

3. Ковалев С.В. Психология современной семьи.-М.: Просвещение 1998.-210 с.

4. Каган М.С. Мир общения. Проблемы межсубъективных отношений. –М.: 1988. - 329 с.

5. Обозов Н.Н. Психология межличностных отношений. - Киев: из-во Ун-та. 1990.- 192 с.

6. Орлов А.Б. Человекацентрированное консультирование как область практики и учебная дисциплина: Триологический подход // Развивающая психология – основа гуманизация образования. –М., 1998

7. Qodirov O.S. “O'smirlarda (11-15 yosh) jinoyat motivlari shakllanishining psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi” // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya. T.: 2020, - 155 b.

8. Entone Giddens. Sotsiologiya. -T.:Sharq. 2002. -848 b.

9. Голод С. И. Современная семья: плюрализм моделей // Социологический журнал. — 2015. — № 3–4. — С. 99–108.

Internet materiallari:

<https://www.uzanalitcs.com>

<https://lex.uz>